

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TA'LIM SAMARADORLILIGINING OMILI.

Usarov Sardor

JDPI Matematika o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Usarova Shoxsanam

JDPI Aniq va tabiiy fanlar o'qitish metodikasi (Matematika)magistr

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalar haqida asosiy tushunchalar ularning ta'rifi, tasnifi haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье приведены основные сведения о педагогических технологиях, их определение и классификация.

Annotation: This article provides basic information about pedagogical technologies, their definition and classification.

Ilmiy texnik taraqqiyot nafaqat aksariyat ishlab chiqarish sohasinigini texnologiyalashtirmoqda, balki u madaniyat, ta'lim sohalariga ham kirib bormoqda. Bugungi kunda informatsion axborot, tibbiyot, ta'lim va boshqa texnologiyalar to'g'risida fikr yurutish mumkin. Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim adabiyoti va nazariyasi ilmidan mustahkam o'rin egalladi, lekin uni pedagogikaning mukammal lug'atlari (tezauris)dagi o'rnini hali noma'lumligicha qolib kelmoqda. Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanish tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan: u texnik vositalar haqidagi ta'limot deb, hamda o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha ta'riflari mavjud.

Pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga jadallik bilan kirib borayotgan bo'lsa ham, uning maqomi noaniqligicha qolib ketmoqda. Tadqiqotchilarning ishlarida fan va amaliyot oralig'idan o'rin egallamoqda. N.F.Talzilna har bir pedagog real pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o'quv jarayoni haqida texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo'lishi shart deb hisoblaydi. U fan va amaliyot oralig'ida tamoyillarni olg'a suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi alohida fan bo'lishi kerak, deb

hisoblaydi. Ularsiz pedagogik jarayon real o'qitish jarayoni sifatida asoslanmay qoladi. Ayrim mualliflar o'qitish texnologiyalariga fan va sifat oralig'idagi fan deb qaraydilar, boshqalari uni loyihalash bilan bog'laydilar.

Pedagogik texnologiyalar tizimi:

Pedagogik texnologiyalarning vertikal tizimida 4 ta bir-birini qamrab oluvchi ta'lim texnologiyalarini qayd etish mumkin:

1. Matatexnologiyalar (ijtimoiy pedagogik daraja). Ta'lim sohasidagi ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdagi texnologiyalar bo'lib, davlat, tuman, o'quv muassasidagi ta'lim jarayonini yaxlit qamrab oluvchi umumpedagogik texnologiyalar.

2. Makrotexnologiyalar (tarmoq pedagogik texnologiyalari).

-Umumpedagogik va umummetodik daraja. Bu ta'limning bir tarmog'ini, ta'lim yoki tarbiyaning biror bir yo'nalishini, o'quv predmetini qamrab olgan texnologiyalar.

3. Mezatexnologiyalar yoki modulli-lokal texnologiyalar. Bu texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayonining qaysidir bir qismi (moduli)ni amalga oshirishga qaratilgan yoki xususiy, lokal didaktik metodik yoki tarbiyaviy vazifalarga qaratilgan bo'ladi.

4. Mikrotexnologiya-shaxsiy muloqot darajasidagi texnologiyalar. Ular pedagogik jarayon subyektlarining o'zaro ta'siri asosida tor doiradagi vazifalarni amalga oshiradilar.

Pedagogik texnologiyalarning gorizontal tizimi quyidagi 3 jihatdan tashkil topgan:

1) ilmiy: pedagogik nazariya va amalyotning yutuqlariga asoslanuvchi ma'lum bir muammoning ilmiy ishlab chiqilgan yechimidan iborat texnologiya;

2) formal-bayoniy: rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun qo'llaniladigan maqsad, mazmun, metodlar, xarakteristik algoritmining modeli, bayoni ko'rinishidagi texnologiyalar.

3) jarayoniy-amaliy: obyekt va subyektning faoliyati—maqsadlash, rejalash, tashkillashtirish, maqsadga erishish va natijalar tahlilini amalga oshirish jarayonidan iborat texnologiya.

Pedagogik jarayonning texnologiyalashganlik tamoyillari

-tizimlilik;

-ilmiylik;

-tarkibiylik;

-boshqaruvchanlik;

Pedagogikada o'quvchilarning ta'lim olganligini tashhishlash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (obektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko'rgazmalilik (oshkoralik) sanaladi.

Xolislik—tashhis testlari, tashhis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlardan iborat.

Tizimlilik tamoyilining talabi nazoratni ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida – bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarda olib borish kerak.

Ko'rgazmalilik—barcha ta'lim oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni talab etadi. Oshkoralik tamoyili baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. Ishmuhamedov R , Abduqodirov A , Pardayev A. "Ta'limda innovatsion texnologiya " .”Iste'dod” , Toshkent-2008.
2. D.I.Yunusova “Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari”. ”Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi”, Toshkent-2011
3. S.Alixonov “Matematika o'qitish metodikasi”-Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2011